

2/2023,
mart-aprel
(№00064)



TURIZM SOHASIGA OLIY MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Eshmurodov Rustam Sayfiddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Turizm va servis" kafedrasida tadqiqotchisi. Toshkent, O'zbekiston. rustam.eshmurodov97@gmail.com

ORCID: 0009-0007-0749-0208

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss2/i45

Annotatsiya

Barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi hozirda O'zbekiston turizmi o'zining rivojlanish bosqichida, bu bosqichda soha vakillaridan yuqori malaka va bilim talab etiladi. Turizm sohasi yuqori malakali, sanoat, mijozlarga xizmat ko'rsatish, marketing va menejment haqida ma'lumotga ega bo'lgan kadrlarni talab qiladi. Bunday kadrlarni tayyorlash turizm korxonalarining muvaffaqiyatini ta'minlash va turistlarga sifatli xizmat ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari hozirgi jadallik bilan rivojlanib borayotgan zamonda yangiliklar bilan doimiy tanishib borilmasa hech bir sohada dunyo bozorining raqobatdoshligini saqlab turish imkonsiz hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan tadqiqot ishimda turizm sohasida ta'lim berib kelayotgan professor-o'qituvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazish orqali ularning fikrlarini o'rgangan holda umumiy xulosa va takliflarni berishni maqsad qildim.

Kalit so'zlar: kadrlar tayyorlash, muammo, ta'lim, o'qituvchilar, natija, turizm sohasi, talabalar.

ПОДГОТОВКА ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КАДРОВ В СФЕРЕ ТУРИЗМА - ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Эшмуродов Рустам Сайфиддин угли

Научный сотрудник кафедры «Туризм и сервис» Ташкентского государственного экономического университета. Ташкент, Узбекистан.

Аннотация

Как и во всех странах, туризм Узбекистана в настоящее время находится на стадии своего развития, и на этом этапе от представителей отрасли требуются высокие навыки и знания. Индустрия туризма требует высококвалифицированного персонала со знаниями в области промышленности, обслуживания клиентов, маркетинга и управления. Подготовка таких кадров важна для обеспечения успеха туристических предприятий и оказания качественных услуг туристам. Кроме того, в сегодняшнюю бурно развивающуюся эпоху невозможно поддерживать конкурентоспособность мирового рынка в любой сфере без постоянного ознакомления с новостями. С этой точки зрения в своей исследовательской работе я стремился дать общие выводы и предложения, проведя опрос среди профессоров и преподавателей, преподающих в сфере туризма, изучив их мнения.

Ключевые слова: подготовка кадров, проблема, образование, преподаватели, результат, сфера туризма, студенты.

TRAINING OF HIGHLY QUALIFIED PERSONNEL IN THE FIELD OF TOURISM-PROBLEMS AND SOLUTIONS

Eshmurodov Rustam Sayfiddin o'g'li

Researcher at the Department of Tourism and Service, Tashkent State University of Economics. Tashkent, Uzbekistan.

Abstract

As in all countries, the tourism of Uzbekistan is currently at its development stage, and at this stage, high skills and knowledge are required from representatives of the industry. The tourism industry requires highly skilled personnel with industry, customer service, marketing and management knowledge. Training of such personnel is important in ensuring the success of tourism enterprises and providing quality services to tourists. In addition, in today's rapidly developing era, it is impossible to maintain the competitiveness of the world market in any field without constant familiarization with news. From this point of view, in my research work, I aimed to give general conclusions and suggestions by conducting a survey among professors and teachers who have been teaching in the field of tourism, studying their opinions.

Key words: personnel training, problem, education, teachers, result, tourism sector, students.

Kirish

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ko'pgina ishlar qilinmoqda. Turizm sohasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni hohlovchilarga qonun bilan belgilangan soliqlardan yengilliklar hamda boshqa imkoniyatlar yaratilgan. Oliy ta'lim muassasalarida ham turizmga kadrlar tayyorlash bo'yicha turizmi kuchli rivojlangan davlatlarning ta'lim dasturlaridan andozalar olgan holda o'z modellarini ishlab chiqish bo'yicha ishlar qilinmoqda. Shunga qaramasdan turizm sohasiga kadrlar tayyorlashda yo'l qo'yilayotgan bir muncha muammolar bitiruvchi talabalarning ishga joylashish ko'rsatkichida ko'zga tashlanib qolmoqda, bu muammolarni negizida bir nechta omillar sabab qilib ko'rsatiladi. Maqolada aynan o'sha muammolarni professor-o'qituvchilarning fikrlari yuzasidan o'rganib chiqamiz va tahlil natijalariga ko'ra takomillashtirish bo'yicha takliflar berib o'tamiz. Bundan tashqari mamlakatimiz prezidenti Sh. Mirziyoyev o'zining ko'plab ma'ruzalarida mamlakatimizdagi kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh etish to'g'risida ta'kidlab keladilar. 2020-yil 30-oktabrda o'tkazilgan videoselektorda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish masalalari muhokama qilindi[1]. Muhokamada O'zbekiston ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag'lar yo'naltirilayotgani haqida so'z yuritdilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Dunyo va O'zbekistonning ham ko'plab olimlari turizm sohasini rivojlantirishda kadrlar tayyorlash tizimining ahamiyati haqida bir qancha izlanishlar olib borishgan. Jumladan

S. Safayeva o'zining "O'zbekistonda turizm sohasi mutaxassislarini tayyorlash muammolari" nomli maqolasida "Menejer va marketologlar turizm sohasida erkin orientir olabilish, turizm bozorini, turistik mahsulotni ilgari surish tartibini bilishi, odamlar bilan ishlash, o'zining va boshqalarning xatti-harakatlarini baholay olishi kabi malaka va bilimlarga ega bo'lishi kerak." – deya turizmga kadrlar tayyorlashda e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan jihatlarini ketirib o'tadilar[3].

M. Amonboyev esa "Образовательная модель подготовки будущего специалиста индустрии туризма" nomli maqolasida turizmga kadrlar tayyorlash tizimi haqida o'z tadqiqotlarini keltirib o'tganlar va unda "Ish beruvchilarning bitiruvchilarga qo'yadigan asosiy talabi - universitetda o'qish paytida o'quv va ishlab chiqarish amaliyotini o'tash jarayonida to'plangan ish tajribasining mavjudligi." - deb fikrlarini berganlar[2].

L. Bekmurodova ham "Turizm va mehmondo'stlik sanoatida kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning istiqbollari" nomli tadqiqot ishida "Zamonaviy turistik firmalari va mehmonxonalariga zamonaviy texnologiyalarni qo'llay oladigan, turistlarning tobora ortib borayotgan ehtiyojlari va jahon sayohat sanoatidagi innovatsion tendentsiyalarni hisobga oladigan, tobora kuchayib borayotgan raqobat sharoitida sanoat korxonalarini

boshqarishning murakkab masalalarini o‘z qo‘llariga olishga qodir yuqori malakali mutaxassislar kerak.” - deb iqtibos keltirgan[5].

S. Sunnatova “Turizm sohasida kadrlar tayyorlash muammosi va ularga qo‘yilgan talablar” nomli maqolasida “Turizm sohasini rivojlantirish avvalo, turizm sohasidagi hamkorlikning samarali yo‘lga qo‘yilishi va kadrlar tayyorlashning sifatiga chambarchas bog‘liq. Turizm sohasidagi kadrlarning asosida kishi, ya’ni “inson omili” yotadi hamda uning rivoji ta’lim sohasining taraqqiyoti bilan bog‘liq.” deb sohaga kadrlar tayyorlash tizimidagi inson omili bilan bog‘liq muammolar haqida fikr yuritadi[6].

A. A. Горикович “Практический подход при подготовке кадров в сфере туризма: проблемы и перспективы” sarlavhali maqolasida “Faol rivojlanayotgan ichki turizm, turizm bozoridagi vaziyat, ayniqsa, 2020-yilda malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi va bakalavriat talabalarini tayyorlash bo‘yicha o‘quv dasturlariga o‘zgartirishlar kiritish zarurligini ko‘rsatmoqda. Talabalarning amaliyot o‘tashi bilan bog‘liq masalalarni sifat jihatidan takomillashtirish va ishlab chiqish, shuningdek, talabalarni o‘qitishga amaliy yondashish, bu yo‘nalishni bosqichma-bosqich rivojlantirish zarur.” degan o‘z tadqiqot muammosini keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi


Mazkur maqolani tayyorlashda ilmiy-nazariy mushohada, tadqiqotchi olimlarning izlanishlari va qiyosiy tahlillardan foydalangan holda tayyorlandi. Shu bilan birga tadqiqotimizning metodologiyasi respublika miqqiyosidagi Turizm sohasiga kadrlar yetkazib beruvchi OTMlarning professor-o‘qituvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomaga asoslangan bo‘lib, uning natijasi o‘laroq nazariy tahlil olib borishdan iborat.

Tahlil va natijalar

So‘rovnomada mamlakatimizning turizm sohasiga kadrlar tayyorlab beruvchi 15 ta ko‘zga ko‘ringan oliy ta’lim muassasalarining 61 nafar professor-o‘qituvchilari qatnashdilar. Ular biz tomonidan tayyorlangan 10 ta savollarga o‘z nuqtai-nazarlari jihatidan javob berdilar. Javoblarga ko‘ra pedagoglarning o‘z kasbidan ko‘ngli to‘lish darajasi o‘rganilganda ularning 63.9% i o‘z ishidan doimo mamnun ekanligini, 31.1% i esa ba’zi holatlarda ko‘ngli to‘lmasligini va 6.6% o‘qituvchilar faqatgina oylik-maoshlar kamligidan qoniqmasliklarini bildirganlar (1-rasm).

Kasbingizdan doimo ko‘nglingiz to‘ladimi?

61 ответ




1-rasm. So‘rovnomaning kasbga doir statistik ma’lumoti.¹

So‘rovnomaning keyingi savolida professor-o‘qituvchilarning faoliyati daomida duch keladigan qiyinchiliklari haqida so‘ralganda, ularning 13.1% i ta’lim berish davomida sohaga

oid yangiliklar bilan doimiy tanishib borishlik, 50.8% i esa mamlakatimizda turizm sohasi yangiligi sababli darsliklar kamligi qiyinchiliklar tug'dirishini ko'rsatgan bo'lsa, 32.8% i oliy ta'lim muassasalarida har xil tabiatli talabalar bilan ishlashga to'g'ri kelishi ularga ko'proq noqulaylik keltirib chiqarishini belgilagan. Bundan tashqari so'rovnoma qatnashchilarining 26.2% i oliy ta'lim muassasalarida kerakli shart-sharoitlarning mavjud emasligini bildirishgan (2-rasm).

Sizning kasbingizni qiyinchilik tomonlari nimada?

61 ОТВЕТ




2-rasm. Ta'lim berish davomida professor-o'qituvchilar duch keladigan qiyinchiliklar.²

Tadqiqot davomida faqatgina ta'lim berishdagi muammolarga emas, balki ustozlarning o'z kasblaridan rohatlanadigan jihatlarga ham e'tibor qaratdik. Bunga ko'ra 59% anketa qatnashuvchilari turizm sohasida ta'lim berish davomida talabalar bilan birgalikda soha yuzasidan sayohatlarga chiqish imkoniyatini belgilashgan, 41% i esa hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan turizm sohasiga berilayotgan katta imkoniyatlarni va shu qatorga sohada ta'lim berib kelayotgan mu'allimlarga ham qaratilgan e'tiborni sabab qilib ko'rsatishdi (3-rasm).

Sizning bu sohada ta'lim berishdan eng rohatlanadigan sababingiz?

61 ОТВЕТ



3-rasm. Professor-o'qituvchilarning o'z kasbidan rohatlanish ko'rsatkichi.³


So'rovnomaning navbatdagi savoli turizm sohasida ta'lim olayotgan talabalarning bilim darajasini baholash, ularning intiluvchanlik darajasini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unga ko'ra professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarga umumiy holatda quyidagicha baholar berilgan. Jumladan 18% talabalar o'zlari tahsil olayotgan yo'nalishi yuzasidan izlanuvchan va bilimga chanqoq, bundan tashqari 36.1% talabalar soha bo'yicha yangiliklarga intiluvchan va iqtidorli ekanliklarini ko'rishimiz mumkin. Qo'shimcha tarzda ular, 18% o'quvchi yoshlarni darslarda juda passivligi va 57.4% foiz holatda talabalarni boshqa maqsadlar, sabablar tufayli turizm sohasiga o'qishga kirishganliklarini qayd etishgan (4-rasm).

² Muallif tomonidan so'rovnoma asosida ishlab chiqilgan.

³ Muallif tomonidan so'rovnoma asosida ishlab chiqilgan.

Turizm sohasida ta'lim olayotgan talabalarni qanday baholaysiz?

61 ОТВЕТ




4-rasm. Talabalarga qo'yilgan baholar ko'rsatkichi.⁴

Yuqorida keltirib o'tilgan ko'rsatkichlarga qo'shimcha tarzda, bitiruvchi talabalarning o'z sohasida (turizm sohasida) faoliyat yuritish ko'rsatkichlarini ham o'rganishga harakat qildik, bunda guruhlar kesimida o'rtacha bir guruhga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlar keltirilgan. Natijalar o'rganilganda, 61 nafar professor-o'qituvchilardan 12 nafari o'zlari ta'lim bergan guruhlardagi talabalarning 10-20% i oliy ta'lim muassasalarini tamomlagandan so'ng o'z sohasida faoliyat yuritishini, 17 nafar o'qituvchilar 20-30% talabalar o'z sohasida davom etishini, hamda 7 kishi 30-40% va 24 nafar ustozlar 40-50% talabalar o'z ta'lim olgan sohasi bo'yicha ishlashini ko'rsatganlar (5-rasm).

Turizm yo'nalishida, siz ta'lim bergan guruhlarda o'z sohasi bo'yicha ishlovchi talabalar ko'rsatkichi taxminan qanday?

61 ОТВЕТ



5-rasm. Bitiruvchi talabalarning o'z sohasida faoliyat yuritish statistikasi.⁵

Navbatdagi savol orqali turizm sohasida ta'lim olgan talabalarning o'z sohasida ishlash ko'rsatkichi pastligiga ta'sir etuvchi sabablar va omillarni o'rganishga harakat qildik. Natijaga ko'ra 21.3% holatda talabalar bu sohada ishlamasliklariga ularning oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish davrlari davomida o'zlarida sohaga kerakli bilim va ko'nikmalarni shakllantirmaganliklari, 50.8% holatda talabalarning xorijiy tillarni bilmaganliklari sababli ish topolmasliklari, 26.2% holatlarda esa turizm sohasida faoliyat olib boradigan davlat tashkilotlari hamda xususiy korxonalarining boshqa sohada ta'lim olgan kadrlarni ham ishga olayotganliklari asosiy sabab qilib belgilashdi. Bundan tashqari 42.6 % bitiruvchilarning o'z


⁴ Muallif tomonidan so'rovnoma asosida ishlab chiqilgan.

⁵ Muallif tomonidan so'rovnoma asosida ishlab chiqilgan.

mutaxassisliklari bo'yicha faoliyat yuritmasliklariga sabab qilib turizm sohasida mavjud bo'lgan ish o'rinlarining oylik maoshlari pastligi va hozirgi kundagi minimal yashash harajatlari bilan nomutunosibligi ko'rsatilmoqda (6-rasm).

Bitiruvchi talabalarning turizm sohasida ishlash ko'rsatkichi pastligiga nima sabab deb o'ylaysiz?

61 ОТВЕТ




6-rasm. Talabalarning o'z sohasi bo'yicha bandlik darajasi pastligi sabablari⁶

Keyingi savolda professor-o'qituvchilardan turizm yo'nalishida ta'lim berishdagi muammolar haqidagi fikrlarini so'raganimizda ularning 18% i sohaga oid o'quv adabiyotlarning eskirganligini va 13.1% o'qituvchilar esa sohaga oid darsliklarning aksariyat hollarda chet tillarida mavjudligini sabab qilib ko'rsatishgan. E'tiborlisi shundaki 72.1% respondentlar turizm ta'lim dasturlarining ko'proq nazariyaga asoslanganligini va 55.7% o'qituvchilar esa talabalar bilan amaliy darslarni tashkillashtirish uchun oliy ta'lim muassasalari va turizm faoliyat olib boruvchi tashkilotlar o'rtasidagi aloqalarni yetarli yaxshi yo'lga qo'yilmaganligini turizm sohasida kadrlar tayyorlashning asosiy kamchiligi etib ta'kidlaydilar (7-rasm).

Turizm sohasida ta'lim berishda qanday kamchiliklar bor deb o'ylaysiz?

61 ОТВЕТ



7-rasm. Ta'lim berishdagi mavjud kamchiliklar to'g'risida⁷

⁶ Muallif tomonidan so'rovnoma asosida ishlab chiqilgan.

⁷ Muallif tomonidan so'rovnoma asosida ishlab chiqilgan.

Xulosa va takliflar

Olib borgan tadqiqotimiz natijalariga va sohadagi professor-o'qituvchilarning bergan fikrlariga ko'ra, shuni xulosa sifatida keltirishimiz mumkinki, hozirgi kunda turizm sohasiga kadrlar tayyorlab berish tizimimizda yechimi topilishi kerak bo'lgan bir muncha kamchiliklar mavjud va bu kabi muammolar O'zbekiston rivojlanish davrida bo'lgan barcha mamlakatlar uchun tabiiy jarayon hisoblanadi. Ammo yuqorida ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarga qanchalik tez yechim topadigan bo'lsak va ularni amaliyotga tadbiiq etadigan bo'lsak, sohaning keyingi bosqichga chiqishiga shunchalik tez erishishimiz mumkin. So'rovnoma natijalariga ko'ra asosiy muammo sifatida belgilab olsak bo'ladigan 4 ta faktorni kiritsak bo'ladi. Ular:

- ✓ talabalarining ish bilan bandlik darajasi pastligi va sabablari,
- ✓ sohaga oid o'quv adabiyotlarining eskirganli va ko'pchilik holatda chel tillaridagina mavjudligi,
- ✓ darslarning faqat nazariyaga asoslanganligi,
- ✓ amaliy mashg'ulotlarni olib borish uchun turizmga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan yetarlicha aloqalarni o'rnatilmaganligidir.

Bu kabi muammolarga yechim sifatida turizm sohasida faoliyat olib boruvchi yirik korxonalar, tashkilotlar bilan oliy ta'lim muassasalari hamkorlik olib borgan holda amaliy mashg'ulot darslarini assistent o'qituvchilar hamrohligida bir nechta guruhga bo'lib, turizmga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarda olib borilsa, talabalar ma'ruza darslarida o'rgatilgan nazariy bilimlarni mustahkamlash hamda amaliy bilim ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu yechim orqali yuqorida ta'kidlab o'tilgan ish bilan bandlik ko'rsatkichi pastligi, darslarning nazariyaga asoslanganligi va amaliy darslarning ham auditoriyalarda o'tilishi kabi 3 ta muammoga qisman yechim topilgan bo'lardi. O'quv adabiyotlarining eskirganligiga esa turizm sohasida kadrlar tayyorlovchi va boshqa oliy ta'lim muassasalarni ham darsliklar bilan ta'minlaydigan tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan kelishgan holda, komessiya tuzish orqali, qayta ko'rib chiqish va darsliklarning hozirgi kunda ham beraoladigan samaradorlik darajasini o'rganish eng maqbul yo'l bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston respublikasi prezidenti farmoni ID-23678

<https://regulation.gov.uz/oz/d/23678>

2. Amonboev, M. (2020). Образовательная модель подготовки будущего специалиста индустрии туризма. *Архив научных исследований*, 1(26). извлечено от <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/2472>

3. Safaeva, S. (2021) O'zbekistonda turizm sohasi mutaxassislarini tayyorlash muammolari. *Журнал Инновации в Экономике*, 4(7).

4. Safaeva, S. (2020). Improving the organizational, economic and institutional mechanisms of managing the sphere of tourism in Uzbekistan. *Архив научных исследований*, (17).

5. Bekmurodova, L. (2022). Turizm va mehmondo'stlik sanoatida kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning istiqbollari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(8), 266-273.

6. Sunnatova S. (2021). Turizm sohasida kadrlar tayyorlash muammosi va ularga qo'yilgan talablar. *Scientific Progress*, 751-755 p.